

MAKTAB O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISHDA  
XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINING O‘RNI

**A. R. Mahammatov**

*Jizzax DPU Maktabgacha va boshlang‘ich  
yo‘nalishlarida masofaviy ta‘lim kafedrası  
o‘qituvchisi*

*Email: [mahammatovakram@gmail.com](mailto:mahammatovakram@gmail.com)*

***Annotatsiya:** Ushbu maqola umumta‘lim maktablari o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish haqida bo‘lib, unda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan xalq ertaklarini o‘qitish orqali maktab o‘quvchilarida mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirish masalalari haqida so‘z yuritilgan. Xalq ertaklarining bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan.*

***Kalit so‘zlar:** Xalq og‘zaki ijodi, xalq ertaklari, mustaqil fikrlash, tafakkur olami, xayolot dunyosi, borliq, barkamol, ijodkorlik.*

Ma‘lumki, bolaning borliqni bilish faoliyati u dunyoga kelishi bilan boshlanadi. Bugungi kunda yosh avlodni jisman va ruhan barkamol qilib tarbiyalash tez va oson amalga oshadigan ish emas. Buning uchun maktab jamoasi va o‘qituvchilardan to‘g‘ri belgilangan maqsad asosida yillar davomida qator vazifalarni o‘z vaqtida amalga oshirish talab etiladi. Shuni esda tutish kerakki, maktab jamoasi va fan o‘qituvchisining yutug‘i tezda ko‘rinmagani kabi xatosi ham o‘sha zahoti emas, oradan yillar o‘tgach yuzaga chiqadi. Agarda bu xatolarni o‘z vaqtida tuzatishga harakat qilinmasa, kelgusida bunday xatolarni tuzatishning imkoni bo‘lmay qoladi. Bola dastlab boshlang‘ich ta‘lim bosqichiga qadam qo‘yganida, jarayon shaklan ham, mazmunan ham ma‘lum tartibga solinib, tizimli ko‘rinish oladi. Maktab hayoti tashqi va ichki jihatlar bilan oila yoki maktabgacha ta‘lim muassasasi hayotidan farq qiladi. Bola birinchi sinfga kelishdan oldin o‘z hayotining bu bosqichi bilan qiziq boshlaydi. Maktabga kelgach esa uni bevosita his qiladi. Bolaning erkin yashash tarzini o‘zgartirib, qoliplarga solingan maktab xayotiga moslashishi oson kechmaydi. Boshlang‘ich sinflarda bilim olish jarayoni o‘yinlar shaklida amalga oshirilishining boisi ham shundan iborat bo‘ladi. Bu ta‘lim jarayonini inson tabiatiga moslashtirish demakdir. Bolalarga betinim jiddiy topshiriqlar berib, ustma-ust nazariy bilimlar singdirish ularni o‘qishdan bezdirib qo‘yishi mumkin. Aqliy zo‘riqishdan toliqib, unga karshi qanday kurashish kerakligini bilmagan bola o‘qimay qo‘ya qoladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda bunday holat juda ko‘p uchraydi. Bolaning mustaqil fikrlashi, badiiy ijodkorligi ilmiy-nazariy bilimlarni egallash uslubini o‘yinlar asosiga qurishning o‘zi alohida muammodir. Chunki barkamol avlodni shakllantirishning bosh omili uni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir. O‘z fikri va mustaqil qarashiga ega bo‘lgan kishi o‘qigan, eshitgan, ko‘rgan-bilganini mulohaza qiladi, o‘z fikriga ega bo‘ladi, qarashlarini asoslaydi. Agar bolalarning davrga mos qilib tarbiyalanishi istalsa, avvalo, ularning

badiiy adabiyotga oshno bo‘lishi ta‘minlanishi shart. Bolalar o‘z imkoniyatlaridan ortiqroq ishlarni bajarishni xush ko‘radilar.

Psixologlarning fikricha, bu bolalarning ruhiy kamoloti va jismoniy o‘rishini ta‘minlovchi asosiy omildir. Ular tabiiy ravishda shunga intiladilar. Boshlang‘ich sinflarda bolalarning mana shu intilishini mustaqil mulohaza yuritishga, fikr aytishga yo‘naltirish ularning ma‘naviy jihatdan to‘kis shaxslar sifatida shakllanishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘z navbatida, ta‘lim-tarbiyaning keyingi bosqichidagi tadbirlar samaradorligini ta‘minlashga ham xizmat qiladi. Boshlang‘ich maktabda shakllantirilgan ma‘naviy fazilatlar bolaning keyingi umri davomida qaramlik, mutelik, mas‘uliyatsizlik, yolg‘onchilik kabi illatlar paydo bo‘lib, ularning bemalol quloq yozib, kengayishiga yo‘l qo‘ymaydi. Psixologiya ilmida ta‘kidlanganidek, insonning aqli, qarashlari kurashlar asnosida tug‘iladi va o‘z rivojlanadi. Bolalarni o‘yinlar asnosida tinimsiz ravishda mustaqil mulohaza yuritishga, munosabat bildirishga, fikr aytishga undash, xayolot dunyosiga sayr qildirish, ruhiy, aqliy zo‘riqishlarsiz ular istagan yo‘llar bilan o‘zlarini o‘zlari tarbiyalashlariga ko‘maklashish lozim.

Mana shunday ijodkorlikka undovchi mashg‘ulotlardan biri “So‘z va hodisalarni eslash” o‘yidir. Sinf doskasiga “kitob” so‘zi yoziladi. O‘quvchilardan shu so‘zning bosh harfi bilan boshlanadigan boshqa so‘zlarni aytish talab qilinadi. Bu o‘yinda qancha ko‘p o‘quvchi ishtirok etib, qancha ko‘p so‘z topilsa, shuncha yaxshi. O‘qituvchining vazifasi “topilma”larni doskaga yozib borishdan iborat bo‘ladi. Ayni vaqtda, o‘quvchilarga kitob bilan bog‘liq barcha ashyolar nomini eslashga to‘g‘ri keladi. Oxirgi bosqichda kitob bilan bog‘liq birorta ertak, hikoya, she‘r to‘qishni so‘rash mumkin. Bunda o‘quvchilarga yukorida to‘plangan materiallar qo‘l keladi. Bu topshiriqning bajarilishida olingan natijalar dastlab balki kutilganidek samara bermasligi mumkin, lekin u qayta-qayta takrorlanaversa, kelgusida albatta kutilgan natijaga erishiladi. Topshiriqlar boskichma-bosqich murakkablashib boradi, bolalarning faoliyati jiddiylashadi va jadallashadi. Shuning uchun u darsda zerikmaydi. Topshiriqlarni bajarish jarayoni qiziq bo‘lgani uchun bolaga aqlan zo‘riqish malol kelmaydi. Bola o‘yin jarayonida fikrlaydi, o‘z leksik boyligini titkilab, uni faollashtiradi. O‘yin davomida kimdir fikrini mantiq asosiga quradi, kimdir so‘zlarni tasodifan aytadi. Boshida bunga ortiqcha ahamiyat berish kerak emas. Muhimi, bolalarning fikr yuritib, mustaqil mulohaza qilgan holda o‘qituvchi aytib berganlarini qaytarib loqayd o‘tirganlaridan ko‘ra qanday bo‘lsa-da, o‘zlari mulohaza yuritishga o‘rganganlari ma‘qul. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar tasavvurini, mustaqil, ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantiruvchi, aqlini peshlab, zehnini o‘tkirlovchi faoliyat turlaridan biri sinfda “Ertakchi” kursisini tashkil etishdir. Mazkur o‘yinda o‘quvchilar o‘zlari to‘qigan ertak, hikoya

yoki voqea-hodisani navbat bilan ertakchi kursisida o‘tirib, aytib beradilar. Bunda bolalar o‘z xayolot olami, bilimlari dunyosida kezib ertak yoki sarguzasht to‘qiydilar, ya’ni ijod qiladilar. Tasavvurlarini o‘zlaricha tizimga soladilar. O‘rtoqlariga qanday ta’sir qilishini o‘ylab bezovta bo‘ladilar, izlanadilar. Albatta, hamma bolalar o‘z ertagi yoki hikoyasi bilan o‘rtoqlari va o‘qituvchisini lol qoldirgisi, hayratlarga solgisi keladi. Shu bois ularning tuyg‘ularini his etib, “ijod” namunalarini hurmat qilish – o‘qituvchining burchi. Bolalar ijodi saviyasi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar ularni tanqid qilish, kamsitish mumkin emas. Bolaning bir muncha ixtiyoriy zo‘riqishi, hayajoni, aqliy va ruhiy intilishi, zavqli mehnati natijasi bo‘lmish ertak qadrlanishi kerak. Kichik o‘quvchilarda mustaqil fikr shakllantirishda qo‘l keladigan yana bir o‘yin – tanish ertakdan olingan beshta so‘z bitta begona so‘zni qo‘shib yangi asar yaratish. Masalan, “o‘gay”, “erka”, “dangasa”, “mehnatsevar”, “sehrgar kampir” kabi tanish so‘zlar doskaga yoziladi yoki kartochkalarga yozilgan so‘zlar yopishtirib qo‘yiladi. Ularga “kulol” degan begona so‘z qo‘shiladi. Bolalar avval tanish so‘zlarga asoslanib ertakning nomini aniqlaydilar. Masalan: “Zumrad va Qimmat” ertagini misol qilib keltirish mumkin. Shundan so‘ng begona so‘z ko‘magida ertakni davom ettirish taklif etiladi. Buni yozma ravishda ham, og‘zaki tarzda ham uyushtirish mumkin.

O‘quvchilar tuzgan ertaklarini sinfda o‘qib yoki aytib beradilar. Mazmunli, mantiqli “asar”larning mualliflari rag‘batlantiriladi. Bu bilan ularning ruhiyati ko‘tarilishi tabiiy. Ko‘tarinki ruhiyat, yaxshi kayfiyat bilan ular dunyoning topshiriqlarini bajarib yuboradilar. Bir olam yaxshiliklar qilishga qodir bo‘ladilar.

Shuni ta’kidlash joizki, jamiyat ravnaqini inson ta’minlaydi. Uni buyuk kelajak sari olib borish ham, tubanlik qa’riga tortish ham uning qo‘lida bo‘ladi. Mustaqil fikri, shaxsiy qarashlariga ega bo‘lgan, erkinlikni his qiluvchi kishilari ko‘p bo‘lgan millatgina taraqqiyot yo‘lidan qat’iyat bilan bora oladi. Jamiyatni harakatga keltiruvchi mana shu kuch – insonning tafakkuri qanchalik mustaqil bo‘lsa, u shunchalik tashabbuskor bo‘ladi. Qanchalik erkin bo‘lsa, shunchalik izlanuvchan bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent. Oqituvchi. 2004.
2. Kiyikbayev F.Q. Bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. Andijon, 2020.
3. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B., Bolalar adabiyoti. Darslik. Toshkent.
4. O‘zbek xalq ertaklari. T.:Sharq, 2006.
5. O‘zbek adabiy ertaklari. T.:Meros, 1992.
6. Qahramonov Q. Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti. T.: Fan, 1991.
7. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qtish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Innovatsiya-Ziyo, 2020.